



UDK: 94:902(575.1)

**OROLBO‘YI MINTAQASIDA ILK SAK QABILALARINING DINIY
AN‘ANALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.**

Yusupov Axmedjon Shonazarovich

Urganch davlat universiteti “Tarix” kafedrası dotsenti., PhD.

E-mail: yusupov89a@mail.ru

Orcid.org/0000-0003-2435-9176

Kenjayev Bektosh Davronbek o‘g‘li

Urganch davlat universiteti Tarix ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

bektoshkenjayev341@gmail.com

Orcid.org/0009-0005-7499-5164

Annotatsiya: Ushbu maqola Orolbo‘yi mintaqasida ilk sak qabilalarining diniy an‘analari va ularning tarixiy kontekstini o‘rganishga bag‘ishlangan. Mintaqa, qadimiy davrlarda turli xil madaniyatlar va e‘tiqodlar markazi bo‘lgan, bu esa saklarning diniy hayoti va an‘nalarini shakllantirgan. Maqolada saklarning totemistik e‘tiqodlari, marosimlari, diniy rituellari va mifologik qarashlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ularning diniy an‘analari boshqa qadimiy xalqlar bilan aloqalarini qanday aks ettirganligi va Orolbo‘yi mintaqasidagi arxeologik topilmalar orqali qanday yoritilishi ham tahlil qilinadi. Maqola saklarning diniy hayoti va madaniyatining murakkabligini tushunishga yordam beradi, shuningdek, ularning tarixiy kontekstini yanada chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi.

Kalit so‘zlar: “skiflar”, “sak”, “skif – sibir”, “Marhumlar uyi”, “xaoma”.

**РЕЛИГИОЗНЫЕ ТРАДИЦИИ РАННИХ САКСКИХ ПЛЕМЕН ПРИАРАЛЬЯ
И ИХ ИСТОРИЧЕСКИЙ КОНТЕКСТ.**

Аннотация: Данная статья посвящена изучению религиозных традиций первых сакских племен Приаралья и их исторического контекста. В древности регион был центром различных культур и верований, которые формировали религиозную жизнь и традиции саков. В статье рассматриваются тотемистические верования, обряды, религиозные обряды и мифологические воззрения саков. Также анализируется, как их религиозные традиции отражают их связи с другими древними народами и как они освещаются археологическими находками в Приаралье. Статья помогает понять сложность религиозной жизни и культуры саков, а также дает возможность дальнейшего изучения их исторического контекста.

Ключевые слова: «Скифы», «Сак», «Скиф – Сибирь», «Дом мертвых», «Хаома».

RELIGIOUS TRADITIONS OF THE EARLY SAK TRIBES OF THE ARAL SEA REGION AND THEIR HISTORICAL CONTEXT.

Abstract: This article is devoted to the study of the religious traditions of the early Sakas in the Aral Sea region and their historical context. The region was a center of various cultures and beliefs in ancient times, which shaped the religious life and traditions of the Sakas. The article examines the totemistic beliefs, ceremonies, religious rituals and mythological views of the Sakas. It also analyzes how their religious traditions reflected their contacts with other ancient peoples and how they are illuminated by archaeological finds in the Aral Sea region. The article helps to understand the complexity of the religious life and culture of the Sakas, and also provides an opportunity to study their historical context in more depth.

Key words: "Scythians", "Sak", "Scythian - Siberian", "House of the Dead", "Xaoma".

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Orolbo‘yi mintaqasi, tarixiy jihatdan ko‘p madaniyatlar va xalqlar uchun muhim bo‘lgan hududdir. Bu yerda yashagan ilk sak qabilalari, o‘zining boy diniy an‘analari va e‘tiqodlari bilan ajralib turadi. Saklar qadimgi davrlardan O‘rta Osiyo va Orolbo‘yi mintaqasida yashagan qabilalar bo‘lib, ularning diniy qarashlari va an‘analari o‘sha davrning ijtimoiy hayoti, urf-odatlar va madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Saklarning diniy e‘tiqodlari ko‘p jihatdan totemizm, tabiatga sig‘inish va ruhiyatga asoslangan. Ular o‘zlarining ajdodlariga, tabiat kuchlariga va hayvonlarga e‘tibor berishgan, bu esa ularning hayot tarzini belgilovchi muhim omil bo‘lgan. Orolbo‘yi mintaqasida topilgan arxeologik yodgorliklar, masalan, qabrlar, ibodatxonalar va boshqa madaniy obidalar, saklarning diniy hayotini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Shuningdek, bu maqola sak qabilalarining diniy an‘alarini o‘rganish orqali Orolbo‘yi mintaqasidagi boshqa xalqlar bilan aloqalarni ham o‘rganishga imkon beradi. Saklarning diniy qarashlari va an‘analari nafaqat ularning ichki hayotiga, balki atrofdagi xalqlar bilan aloqalariga ham ta‘sir ko‘rsatgan. Ushbu maqola, ilk sak qabilalarining diniy an‘analari va tarixiy kontekstini o‘rganish orqali o‘z vaqtida Orolbo‘yi mintaqasida yuz bergan madaniy va ijtimoiy jarayonlarni yoritishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ/LITERATURE ANALYSIS). XIX asrning 60–80– yillarida dastlab venger sharqshunosi A.Vamberi [5], keyin esa Rossiyaning turli soha mutaxassislari A.L.Kun [13], M.I.Ivanin [10], A.V.Kaulbars [12. B. 31-32], ilk yozma manbalarga tayangan holda, G‘arbiy Yevropa sharqshunoslari V.Tomashek [2], I.Markvart [1] ko‘chmanchi ilk sak qabilalari haqida yozishgan.

1937 yilda Xorazm arxeologik ekspeditsiyasining ishlari boshlanib, ko‘chmanchi va o‘troq xalqlarning tarixini arxeologik ashyolarga tayanib o‘rganishning amaliy imkoni paydo bo‘ldi. 1948 yilda chop etilgan S.P.Tolstovning monografiyasida Ko‘zaliqir, Qal‘aliqir va Jonbosqal‘a, Qo‘yqirilganqal‘a, Qo‘rg‘oshinqal‘a va boshqa mudofaa istehkomlar haqida ma‘lumotlar yoritildi [16].

XX asrning 70–80– yillarida qadimgi Xorazm mudofaa inshootlarining o‘rganilishi jarayonida Qoraqalpog‘iston arxeologlari M.Mambetullaev [14], Yu.P.Manilov [15], G‘.Xo‘janiyozov [17] va N.Yusupovlarning tadqiqotlari va kashfiyotlarini uqtirib o‘tish lozim. Bir qator yodgorliklar, shu jumladan, Kat va Ayozaqal’a 2, Shovot va Xiva Tuproqqal’alari, Jampiqqal’a, Katta Oybuyirqal’a, Qizilqal’a va boshqalarida keng qamrovli arxeologik ishlar natijasida ko‘pgina ma’lumotlar olindi.

“Avesto”da qadimgi O‘rta Osiyo o‘troq va ko‘chmanchi xalqlarining tarixiga oid muhim ma’lumotlar ilk bor yoritilgan [3].

Qadimgi fors podsholari Kir II va Doro I ning O‘rta Osiyoga yurishlari natijasida Orolbo‘yi saklar qabilalari va xorasmiylar elati xaqida forslarning ma’lumotlari ancha boyitilgan va ular bilan so‘ng qadimgi yunon tarixchilari va geograflari tanishib olishgan.

Mazkur maqolada tarixiylik, obyektivlik, tizimlilik kabi asosiy metodologik tamoyillardan foydalanilgan holda, ilk sak qabilalarida diniy qarashlar tarixi yuzasidan ma’lumotlar arxeologik va yozma manbalar asosida tarixiylik nuqtai nazaridan ilmiy tahlil etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR (ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ / DISCUSSION AND RESULTS). Yunon mualliflari asarlarida daxlar, saklar, massagetlar va sarmatlar kabi ko‘chmanchi qabilalarga nisbatan “skiflar” tushunchasi umumiy ma’noda qo‘llanilgan. Axamoniylar davlatining poytaxti Persepol shohlar saroyining bo‘rtma devoriy tasvirlarda O‘rta Osiyoning sug‘diylar va baqtriyaliklar kabi saklar va xorazmliklar tasvirlari xam o‘z aksini topgan. Persepoldagi Doro I va Kserksning saroyiga olib boradigan pillapoya devorlariga axamoniylarga tobe bo‘lgan mamlakatlardan o‘lpon olib kelayotgan vakillar aks etgan bo‘rtma manzaralarda o‘n birinchi guruxda aks etilgan saklar otni yetaklab bormoqdalar. Ular xanjar bilan qurollanganlar [15. b. 42].

Orolbo‘yi ilk saklarning e’tiqodlari va diniy qarashlarining ayrim jihatlari S.P. Tolstov, M.A. Itina, O.A. Vishnevskaya va L.T. Yablonskiylarning ishlarida ko‘rib chiqilgan [11], ammo bu masala maxsus tadqiqot mavzusiga aylanmagan. So‘nggi yillar monografiyalarida mazkur muammo qisqacha yoritilib, ko‘proq Xorazm va zardushtiylik masalasi tahlil qilingan [9]. Saklarning e’tiqodlari qatorida Yevroosiyo dasht qabilalari diniy qarashlarining asotirli yoki magiya-sehrgarlik mohiyati, ko‘chmanchilarning tasviriy san’atiga doir hayvon suratlarni ishlash “skif – sibir” usuli misolida B.N. Grakov, M.I. Artamonov, G.A. Fyodorov-Davydov, A.K.Akisev, Ye.E.Kuzmina va boshqa olimlarning asarlarida ko‘rib chiqilgan [7]. Ilk temir davri dasht chorvadorlarining urf-odatlarini yoritishda yozma manbalar (“Avesto”, Gerodot, Strabon va boshqa qadimgi mualliflarning asarlari) asosida dafn marosimlarini o‘rganish va arxeologiya materiallari katta ahamiyat kasb etgan. Saklar etnomadaniy jihatdan Srubnaya-Andronovo madaniyatlari doirasidan kelib chiqishini inobatga olgan holda, dashtlar cho‘ponlari jamiyatida ilgari shakllangan va izlari ilk temir davrigacha saqlanib kelgan e’tiqodlarning mazmunmohiyati yuqorida tilga olingan tadqiqotchilarning asarlarida ochib berilgan.

Andronovo madaniyati qabilalarning O‘rta Osiyoga migratsiyalari natijasida marhumlarni qabrlarga ko‘mish qatori, jasadlarni kuydirish (krematsiya odati) yoki ularning ustiga kul sepish

udumlari paydo bo‘lgan hamda marhumlar maxsus joyda kuydirilib, gulxandan qolgan kul xaltachalarga yig‘ilgan va qabrlarga ko‘milgan [8]. Bunda olov sehrgarlikramziy ahamiyatga ega bo‘lgan. Xuddi shunday udumlar Uygarak va Sakarchaga saklar qabristonlarida aniqlangan dafn marosimlarida o‘z aksini topgan. Qabrlar ichiga ro‘zg‘or buyumlari, zeb-ziynatlar, qurollar va ot anjomlari bilan birgalikda qurbonlikka keltirilgan uy va yovvoyi hayvonlarning go‘шти qo‘yilgan. Bundan sigir va otning umurtqa va qovurg‘a qismlari hamda qo‘ylarning bosh suyaklari guvohlik beradi. Sakarchaga qabrlaridan bug‘u, saqoqush, quyon va katta baliq suyaklari topilgan [12]. Marhumlarni “narigi dunyo” yo‘liga uy-hayvonlarning go‘шти bilan ta‘minlash odati dasht chorvadorlarining jamoalarida bronza davrida paydo bo‘lgan. Uraldagi shu davrga oid Sintashta qabristonida qurbonlikka keltirilgan sigir, ho‘kiz va qo‘yning son va qovurg‘a qismlari hamda bosh suyaklari qabrlarga ko‘milgan. Ayrim qabrlardan 2-7 ta otlarning suyaklari va beshta qabrdan alohida joylashgan jang aravalar topilgan [6]. Bularga o‘xshash qabrlar, Orolbo‘yida Shimoliy Tagisken dafn inshootlari singari, urug‘-qabila yo‘lboshchilari va harbiy sardorlarga tegishli bo‘lgan. Saklarning dafn amaliyotida vafot etganlarning bir holatdan ikkinchisiga o‘tish sifatida baholanib, marhumning ijtimoiy mavqei narigi dunyoda ham hayotdagi singari holatda saqlanib qoladi, degan tasavvur ta‘sirida jasadlar yerto‘la va kulbasimon turar joylarini ichki ko‘rinishi va tuzilishida takrorlangan qabrlarga dafn etilgan. “Marhumlar uyi” ro‘zg‘or buyumlari, qurollar va ot anjomlari bilan jihozlangan, uning “egasi” ni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash urf – odatiga rioya qilingan. Bu odat marhumlarni qadrlash va ajdodlarning ruhiga sig‘inish udumlaridan kelib chiqqan. Ilk saklarning diniy qarashlarida, narigi olamdagi hayot haqidagi tasavvurlar dafn marosimlarida o‘z aksini topib, shunda olov e‘tiqodi katta ahamiyat kasb etgan. U marhumni kuydirishda yorqin namoyon bo‘lgan. Yer olovi marhum jonining osmoniga va abadiy so‘nmas osmon olov-Quyoshga eson-omonlik bilan yetib borishiga ko‘maklashish vositasi sifatida baholangan. Dasht hududlarida olovni qadrlash va unga sig‘inish olis zamonlardan boshlangan. Buning e‘tiborga molik jihati shundaki, sovuq qish kunlarida olov issiqlik manbasi bo‘lgan, o‘choq olovi ustida turgan sopol qozonlarda cho‘ponlar go‘shtli taomlarni tayyorlaganlar, olov cho‘g‘lari sopol tuvaklar ichida bir joydan ikkinchisiga ko‘chirilgan, shu bois qizg‘in alanga odamlar qarashlarida ilohiy kuchga ega bo‘lgan. Shuningdek, olov ozoda qiluvchi magiya xususiyati bilan bog‘langan. Shu sababli unga bag‘ishlab uy hayvonlarni qurbonlik qilishgan [4]. “Avesto” da “sonsiz-sanoqsiz” podalarga ega qabila yo‘lboshchilari tomonidan qurbonlikka so‘ydirilgan “yuz ayg‘ir, sigir, sanoqsiz qo‘y” haqida ma‘lumotlar mavjud. Manbada “qurbonlik qilganlar, doim haq yo‘lda” deb uqtirib o‘tilgan [3]. O‘sha davrlarda daryo va ko‘llar suviga sig‘inish va daryolarga “xaoma” ichimligini hadya qilish odati vujudga kelgan. Bu tushuncha bilan bog‘liq “xaomani qadrlagan”, “ichimlik xaomaga sig‘inuvchilar” saka-xaumovarka qabilalari etnonimining kelib chiqishi e‘tiborga molik. “Xaoma” avesto tilidan “o‘sha, nimani siqib chiqaradilar” deb taxminiy tarjima qilinadi. Chorvadorlarning qarashlarida Xaoma ma‘budasi “yashil ko‘zli” ma‘noga aylangan. U chorvaning himoyachisi, odamlarni qurg‘oqchilik va ocharchilikdan saqlaydigan, jangchilarga kuch beruvchi ma‘buda hisoblangan.

Xulosa (Conclusion).

Orolbo‘yi mintaqasida ilk sak qabilalarining diniy an‘analari, ularning tarixiy konteksti bilan chambarchas bog‘liqdir. Saklar, o‘zlarining totemistik e‘tiqodlari, tabiatga sig‘inish va ruhiyatga asoslangan diniy qarashlari orqali o‘z hayotlarini shakllantirgan. Ularning diniy amaliyotlari va marosimlari, mintaqaning ijtimoiy tuzilishi va madaniyati bilan birga rivojlangan, bu esa saklarning hayot tarzida muhim rol o‘ynagan.

Arxeologik topilmalar, jumladan, qabrlar va ibodatxonalar, saklarning diniy hayotini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu yodgorliklar orqali saklarning ajdodlariga, tabiat kuchlariga va hayvonlarga bo‘lgan e‘tiborini ko‘rish mumkin. Shuningdek, saklarning diniy an‘analari, Orolbo‘yi mintaqasidagi boshqa xalqlar bilan aloqalarini ham aks ettiradi, bu esa ularning madaniy o‘zaro ta‘sirini namoyish etadi.

Ushbu maqola, ilk sak qabilalarining diniy an‘analari va ularning tarixiy kontekstini o‘rganish orqali Orolbo‘yi mintaqasidagi madaniy va ijtimoiy jarayonlarni yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. Saklarning diniy e‘tiqodlari va amaliyotlari, nafaqat ularning o‘ziga xos madaniyatini belgilovchi muhim omil bo‘lib, balki bu mintaqada yuz berayotgan tarixiy voqealarga ham ta‘sir ko‘rsatgan. Natijada, saklar Orolbo‘yi mintaqasining boy madaniy merosini yaratishda muhim rol o‘ynaganligini ta‘kidlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Markwart / Untersuchungen zur Geschichte von Eron.– Gottingen, 1896. –258 s
2. Tomaschek W. CHorasmiya // Pauly’s Real – Encyclopedie der Klassischen Altertums – wissenschaft. – Stuttgart, 1894. Bd. 3.– Pp.–2406.
3. Авесто. Яшт китоби / М. Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 23-25.
4. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. // Пер. с англ. И.М. Стеблин-Каменского. – М.: Наука, 1987. – С. 10-11.
5. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии / Перевод с английского.– СПб., 1985. –221 с.
6. Генинг В.Ф., Ашихмина Л.И. Могильник эпохи бронз на р. Синташта // АО 1974. М.: Наука, 1975. – С. 144-147.
7. Граков Б.Н. Скифы. – М.: Наука, 1971. – С. 99-105.
8. Грязнов М.П. Пастушеские племена Средней Азии в эпоху развитой и средней бронзы // КСИА. Вып. 122. - М., 1970. .- С. 37-42.
9. Курбанова Д.Ш. Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар маънавий маданияти. Тошкент, 2015. - Б. 72-73, 107-110.
10. Иванин М.И. Хива и река Амударья.–СПб., 1873.– 64 с.
11. Толстов С.П. Приаральские скифы и Хорезм // СЭ. – М., 1961. №4. – С. 114-116.
12. Яблонский Л.Т. Саки Южного Приаралья (археология и антропология могильников). – М.: Институт археологии РАН, 1996. – С. 72.

13. Кун А.Л. Поездка по Хивинскому ханству в 1873 г. // Известия Российского географического общества. Т.Х.– СПб., 1874.– С.17–58.
14. Мамбетуллаев М., Манылов Ю.П., Юсупов Н., Хожаниязов Г. Исследования в Хорезмской области // АО 1974.– М.: Наука, 1975.– С. 505–506.
15. Манылов Ю.П. Городще Кят // ОНУ. N 7–8, 1973.– С.110–114.
16. Толстов.С.П. Древней Хорезм.– М.:МГУ, 1948.– С. 77–100.
17. Хожаниязов Г. Малая Кыркыз–кала–городище раннеантичного Хорезма//Археология Приаралья.Вып.IV.–Ташкент: Фан, 1990.– С.82–91.